

HAR BIR OILAGA BAXT OLIB KEL, YANGI YIL!

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-YIL
26-DEKABR
№:52
(66853)

ISSN – 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Bir savolga
to'rt javob:

**QORBOBODAN
NIMA SO'RAGAN
BO'LARDINGIZ?**

Fariza AVEZOVA,
Qoraqalpog'iston Davlat
universiteti qoshidagi
1-akademik litsey o'quvchisi:
– Yer yuzidagi barcha bolalar
ochlik, muhtojlik nimaligini
bilibmasin Qorbobodan
faqat o'yinchoq sovg'alar
kutishsin!

Asadbek BAHODIROV, Xorazm
viloyati, Urganch shahridagi 1-son
musiq va san'at maktabining 1-sinf
o'quvchisi:
– Men «Yangi avlod – 2011» bolalar
ijodiyoti festivalining respublika
bosqichida g'olib bo'ldim va bu men
uchun Yangi yil sovg'asi bo'ldi.
Qorbobodan esa, boshqa
tengdoshlarim ham g'olib
bo'lishlarini so'rardim.

Sardor AMONOV,
Respublika musiqa va
san'atga ixtisoslashtirilgan
maktab-internatining
7-«A» sinf o'quvchisi:
– Butun dunyo bolalarining
sog'lom bo'lishlarini
so'ragan bo'lardim.

Dildora SAYID XO'JAYEVA,
poytaxtdagi 208-maktabning
2-sinf o'quvchisi:
– Katta ahil oilamiz bor: buvam,
buvim, oyim, dadam, men, jajji
singilcham Malika. Qorbobodan
oilamiz yanada mustahkam
bo'lishini so'ragan bo'lardim.

Aziz bolalar!

Hayotimizning bir bo'lagi bo'lgan 2011-yil ham yakunlanmoqda. Bu yil nafaqat Siz bilan bizning taqdirimizda, balki mamlakatimiz, xalqimiz taqdirida ham ulkan iz qoldirgan voqealarga boy bo'ldi. Eng ulug'i — O'zbekiston Mustaqilligining 20 yilligi keng nishonlandi.

ONA VA BOLA**E'Zozda**

Siz Mustaqillik maydonida ko'p bo'lgansiz. «Ezgulik arki»dan o'tib, «Baxtiyor ona» monumentiga borayotganingizda, tinch, osoyishta Vatanda yashab, emin-erkin ta'lim olayotganingizdan faxrlanasiz. Muqaddas go'shamizdagi yodgorlik dunyoda yagona, desam, yanglishmayman.

Yodgorlik mazmuni shunday: ona bilan bolaning e'zozda, izzatikromda, qalbimizning to'rida ekanligini bildiradi. U chinakam g'amxo'rlik, hurmat-ehтиrom ifodasi.

Bu yil poytaxtimizda yangi bunyod etilgan eng ko'rkam va hashamatli «Ma'rifat markazi» majmuidagi simpoziumlar saroyida o'tkazilgan «Sog'lom ona — sog'lom bola» Xalqaro simpoziumi jahonshumul voqea bo'ldi. Anjuman mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash masalasiga qaratilgan alohida e'tiborning amaldagi yana bir ifodasidir.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur Xalqaro anjumanda Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (JSSST), BMTning Bolalar jamg'armasi (YUNISEF), BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA) faol qatnashdilar.

Prezidentimiz Islom Karimovning anjuman ochilishidagi ma'ruzasida mustaqillik yillarida aholi sog'lig'ini, jumladan, ona va bola salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, sog'lom avlodni voyaga yetkazish hamda tibbiyot sohasini tubdan isloh qilish haqida so'z bordi.

Bu nufuzli anjumanni tashkil qilish va o'tkazishda faol ishtirok etgan Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti Bosh direktori Margaret Chenning I darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni bilan mukofotlanishi ham katta voqea bo'ldi.


Xalqaro anjumanning yalpi majlisida Rossiya, Fransiya, Germaniya, Janubiy Koreya, AQSH, Xitoy, Yaponiya, Hindiston va boshqa ko'pgina davlatlarning Sog'liqni saqlash vazirliklari rahbarlari, mashhur shifokorlar hamda yetakchi mutaxassislarining chiqishlari tinglandi.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti Bosh direktori Margaret Chen xonim jurnalistlarga bergan bir intervyusida shunday dedi:

— O'zbekistonda Mustaqillikka erishilgan 1991-yildan so'ng onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish borasidagi Davlat siyosati va bu xayrli ishga sodiqlik yuksak darajada namoyon bo'ldi. Bu davlatingiz rahbarining uzoqni ko'zlab olib borayotgan oqilona siyosatining amaliy samarasidir...

«Yurtboshimiz tomonidan 2012-yilning «Mustahkam oila yili» deb e'lon qilinishi ham ona va bolaga bo'lgan yuksak ehtiromning, g'amxo'rlikning chinakam namunasidir. Davlatimiz rahbari alohida ta'kidlaganlaridek, «Ona sog'lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqaror». Bu ibratli harakatlarning barchasi barkamol avlod orzusini ro'yobga chiqarish, jismoniy va ma'naviy sog'lom farzandlarni voyaga yetkazish yo'lidagi keng ko'lamlil ishlarining o'ziga xos timsolidir.

Jabbor RAZZOQOV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



Siz, aziz bolalar, Prezident bobongizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarini yaxshi bilasiz. Ana shu kitobda oila haqida, ayniqsa, siz to'g'ringizda aytilgan juda muhim fikrlar borki, ularni o'qir ekanmiz, buguningiz, kelajagingiz haqida shunday g'amxo'rlik qilinayotganidan quvongan holda «Ha, yangi avlodga har qancha havas qilsak arziydi», deymiz. Bu kitobni o'zingiz ham yana bir karra o'qib, madad va ruh oling!

«Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun, avvalo, har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo'lur edi».

«Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor».

«Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir».

«Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxt-u saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda».

TAMARA OPANING OCHIQ DARSII

Bu yil tog'larga har yilgidan ko'p qor tushdi. Bobodehqon-u fermerlarning ko'zlarida quvonch yolqini. Demak, bu yil suv serob bo'ladi. Darvoqe, aziz bolalar, suv – hayot manbai. Suv bor yerda hayot bor. Daraxtlar, o'simliklar, qushlar, qo'ying-ki, barcha tirik jon suv bilan tirik. Okean, dengizlarda suv ko'p-ku, dersiz. Lekin sho'r-da bu suvlar!.. Iste'molga yaroqsiz.

Siz bilasizki, ichimlik suvi zaxirasi juda ko'p emas. Shu bois, suvdan tejab-tergab foydalangan ma'qul. Suvni iflos qilib bo'lmaydi. «Suvga tupurma – gunoh», deydi xalqimiz.

Poytaxtimizning Sirg'ali tumanidagi 300-maktabda o'tkazilgan ochiq darsda ana shular haqida so'z yuritildi. – Suvni bizgacha ajdodlarimiz toza holda yetkazib kelishgan, – deydi maktabning 2-«F» sinf o'qituvchisi Tamara Ahmedova. – O'ylaymanki, ana shunday ochiq darslardan so'ng bolalarimiz suvning har tomchisi oltin ekanligini anglab yetadilar.

O'z muxbirimiz



AJDODLARGA HURMAT

Bolalar!

Yangi yilni xushnudlik bilan kutib olyapsiz. Shukuhli kunlarda ulug' ajdodlarimizni yana bir esga olaylik. Quidagilarni bilib qo'yish siz uchun ham, albatta, juda qiziqarli, deb o'ylaymiz.

Xo'sh, jahonning qaysi shaharlari-da ajdodlarimizga hurmat ko'rsatilgan? Belgiyada – Ibn Sinoga;

Litvada – Mirzo Ulug'bekka;

Moskva, Tokio va Boku shaharlari-da – Alisher Navoiyga;

Misr poytaxti Qohirada Ahmad Far-g'oniy xotiralarga haykal qo'yilgan.



SAVOL – JAVOB

Tashqarida qish kezadi, tengdoshlaringiz esa issiqqina uy ichida savol-javob qilishib, fikrlarini charxlashyapti. Keling, biz ham ularga quloq tutamiz.

– Olovdan issiq narsa nima?

– Hasad!

– Qahratondan sovuqroq nima?

– Beoqibat qarindoshlarga muhtoj bo'lmoq!

– Toshdan qattiqroq narsa nima?

– Yomon kimsaning dili!

SHAHNOZA tayyorladi

4

TONG
yulduzi

26-dekabr 2011

KITOBGA MEHR QO'YING



Shu yilning 14-15-dekabr kunlari «Yangi avlod – 2011» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Kuni kecha poytaxtimizdagi «Istiqlol» san'at saroyida mazkur nufuzli festivalning bu yilgi g'oliblarini taqdirlash marosimi o'tkazildi. «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashining «Kamalak» bolalar tashkiloti hamkorligida hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ko'magida o'tkazilgan festivalda yurtimizning barcha hududlaridan 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 26 mingdan ziyod bolajonlar ishtirok etishdi. Ular mumtoz va milliy cholg'ular ijrosi, qo'shiq, raqs, tasviriy va amaliy san'at, she'riyat va adabiyot yo'nalishlari bo'yicha o'z iste'dodlarini ko'rsatishdi. Festival doirasida ishtirokchilar uchun mahorat darslari tashkil etildi. V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi va Respublika rassomchilik kollejida taniqli san'atkorlar, shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

«Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali mamlakatimiz iste'dodli bolalarini kashf etish va kelgusida ularning iste'dodini rivojlantirishning o'ziga xos modeliga aylanib ulgurd, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Muxbirimiz Feruza ADILOVA festival ishtirokchilari va g'oliblari bilan suhbatlashdi.

Javonimda nur sochadi kitoblar,
Go'yo ular ming xildagi odoblar.
Biri bilim, biri omad, biri baxt,
Boshqalari sadoqat-u, kuch-g'ayrat.

JAVONIMDA NUR SOCHADI KITOBLAR

*Malikaning yutug'i kitobga
mehr qo'yib, u bilan
do'stlashganida, desak, sira
yanglishmaymiz.*

Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 24- maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi Malika Ergasheva maktabning eng a'lochi va jamoatchi qizlaridan biri. Turli ko'rik-tanlov va musobaqalarning bir necha bor g'olibi. Jumladan, 2010–2011-o'quv yilida u bilimlar sinovining maktab, tuman, viloyat bosqichlarida faxrli o'rinlarni egallagan.

– O'quv maskanimizda o'tkazilayotgan tadbirlarda Malika o'zining iqtidorini, yetakchilik qobiliyatini ko'rsatmoqda, – deydi maktab direktori Qilich Razzoqov. – Uning iste'dodini tarbiyalash va kamol toptirishda biz ustozlar hamisha kerakli va yetarli sharoitlarni yaratishga harakat qilmoqdamiz.

U «Yangi avlod – 2011» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichida «F» guruh – she'riyat, adabiyot va teatr ssenariysi nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

– G'oliblik men uchun Yangi yil sovg'asi bo'ldi. Unga munosib bo'lishga hamisha harakat qilaman, – deydi Malika hayajonini yashirolmay.

Biz ham uning quvonchiga sherikmiz.



BOLAKAYNING QO'SHIG'I

«Men ko'hna Xorazmdan keldim. «Yangi avlod» festivalining respublika bosqichida ishtirok etayotganimdan mamnunman. San'atsevar xalqimning olov misoli gurkiragan san'atidan atigi bir uchqunini sizlarga armug'on etaman», dedi-yu, bolakay zavq-shavqqa to'lib qo'shiq kuyladi va barchaning e'tiborini tortdi. El nazariga tushgan san'atkorlar bilan yonma-yon qo'shiq aytadigan bola shunday kuylashi kerak-da, axir!

– 2011-yil men uchun esda qolarli yil bo'ldi, – deydi Xiva shahridagi 8-maktabning 2-sinf o'quvchisi Doniyor Jasurbekov. – Mustaqilligimizning 20 yilligi tantanalarida, festivalning yakuniy gala-konsertida taniqli san'atkor Ozodbek Nazarbekov bilan birgalikda qo'shiq kuyladim. Bundan juda ham xursandman.

Jajji san'atsevarning gaplarini tinglab, «Bo'sh kelma, Doniyor!» degimiz keldi.



SARHISOB - 2011

Aziz o'quvchilar, bugun qo'lingizda gazetamizning 2011-yildagi eng so'nggi soni turibdi. Kunlarning o'tishini qarang-a, yaqinida «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb nom olgan mazkur yilimizni ezgu niyatlar, ulkan orzular og'ushida qarshilagan edik. Ayni kunlarda esa uni kuzatish arafasidamiz.

Inson borki, o'tayotgan har bir kuni, yili, umrini sarhisob qiladi. Qilgan ezgu amallaridan ko'ngli taskin topsa, ulgur olmay qolgan ishlarini yangi yildagi rejaları qatoriga qo'shib qo'yadi.

Jumladan, biz tahririyat xodimlari ham yil davomida amalga oshirilgan ishlarimizni sarhisob qildik:

* * *

An'anaga ko'ra, yil boshida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «Kamalak» Respublika bolalar tashkiloti, O'zbekiston ekologik harakati bilan hamkorlikda «Onajonim tabiat» insholar tanlovini e'lon qildik. Unda 300 dan ziyod o'quvchilar o'z ijodiy ishlari bilan ishtirok etishdi.

Ulardan biri Farg'ona viloyati, Buvayda tumanidagi 36-maktab o'quvchisi Sohibjon Hotamov tanlov g'olibi bo'ldi.



O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika bolalar kutubxonasi hamkorligida tashkillashtirilgan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» insholar tanlovida ham ikki yuzga yaqin o'quvchilar ishtirok etishdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumanidagi 11-umumtali maktabning 7-sinf o'quvchisi Ayjamol Karamatdinova oliy o'rin sohibasi bo'ldi.

O'zbekiston bolalar va oilalarni qo'llab-quvvatlash assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda YUNISEF tashkiloti ko'magida «Bola huquqlari bolalar nigohida» tanlovi o'tkazildi.

Unda 105 nafar o'quvchi qatnashib, huquqiy bilimlarini sinashdi. Bolalar huquqlariga oid boshqotirmalar tuzib, yangi talqinda ertak yozib yuborgan bekobodlik Kumush Abdurazzoqova g'oliblar o'nligining shohsupasini band qildi.



«Kamalak» Respublika bolalar tashkiloti bilan hamkorlikda «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovi o'tkazildi. Unda 85 nafar kitobsevar o'g'il-qizlar qatnashishdi. Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 63-maktabning 8-sinf o'quvchisi Dilnoza Norova eng yaxshi kitobxon o'quvchi deb topildi.



Yaqinlashib kelayotgan yangi - 2012-yilda ham gazetamizning mazmun-mundarijasini boyitish, Sizning bilim va salohiyatingizni oshirish maqsadida yana ko'plab tanlovlar o'tkazishni rejalashtiryapmiz. Sevimli nashringizga obuna bo'ling, har bir sonini kuzatib boring, tanlovlarda faol ishtirok etib, g'oliblar safida bo'ling.

«Tong yulduzi» tahririyati jamoasi Sizni Yangi yil bilan muborakkob etadi.

Tahririyat



HAVO KEMAMIZ TAYYORI!



Qish oqshomlarining


birida ishdan qaytayotgan edim. Uyimiz yonidagi bog'cha oldida o'tirgan yetti-sakkiz yoshlardagi jingalaksoch bola – qo'shnimizning o'g'li Sarvarbekning kipriklaridagi namni ko'rib, uning yoniga cho'kdim:

- Birov sizni xafa qildimi, bolajonim?
- Ana u ... akamga samolyot yasab bering, desam, boshimni og'rıtma, deb ko'chaga quvdi! – deya javob qildi u biyron tilda.
- Shunga ham xafa bo'lish kerakmi, Sarvarbek, balki akangiz haqiqatan ham samolyot yasashni bilmas, shuning uchun istamagandir. Men esa samolyot yasashni bilaman. O'rgataymi?

Sarvarbekning ko'z'lari yondi:

– O'rgating!

Men papkamdan bir varaq qog'oz olib, uni mana bunday bukladim:



So'ng, quyidagi ko'rinishga keltirdim.

Qanotlarini yaxshilab tekisladim va bir zunda havo kemamiz tayyor bo'ldi. O'rımıdan turib, uni tepaga ırg'ıtgan edim, yengil parvoz qildi. Sarvarbek o'rımdan ıldam turib, ırg'ıshladi:

– Uchdi! Uchdi! Ur-re, ur-re!!!

Biz havo kemamizni qayta-qayta uchirdik.

– Yoqdimi? – so'radim Sarvarbekdan.

– Juda yoqdi, amaki, rahmat sizga!

– Juda odobli bola ekansiz, – dedim undan minnatdor bo'lib va qiziqib so'radim: – Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

– Fazogir bo'lmoqchiman!

– Unda men sizni «Yosh aviamodelchilar to'garagi»ga olib boraman. Borasizmi?

– Boraman, amaki, boraman, – u qo'lidagi «havo keması»ga ishora qildi. – Shuni taxtadan yasash mumkinmi?

– Albatta, yasash mumkin! Lekin, avvalo, buning uchun ko'p o'qib, ko'p o'rganish kerak!

– Albatta, ko'p o'qıyman, amaki, – dedi u va qog'oz havo kemasini shıtob bilan osmonga otdi. Oq havo kemamiz bu safar uzoq parvoz qildi...

BURJLAR VA YIL NOMLARI

ular qanday kelib chiqqan?

Bolajonlar, sanoqli kunlardan so'ng eski yil bilan xayrlashib, yangi yilni qarshi olamiz. Yangi yilga yangi orzular bilan kirib borar ekanmiz, bu yilda bizni nimalar kutayotgani haqida o'ylab qolamiz. Gohida ishonib, goho ishonmay munajjmlar bashoratiga murojaat qilamiz.

Qadimdan ajdodlarimiz yulduzlar hamda yetti sayyorani kuzatish orqali insonning qaysi burj ostida tug'ilganligini aniqlab, uning fe'l-atvorini aytib berganlar. Mazkur irimlar aslo folbinlikka kirmagan, balki xalqning asriy tajribalari, uzoq kuzatuvlar xulosasi, ilmiy dalillari hisoblangan. Bugungi kunda bir paytlar Markaziy Osiyo xalqlari keng foydalangan burj va muchal hisobi Yer yuzining barcha mintaqalarida katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu taqvimga turkiy xalqlar va xitoylar da'vogarlik qilishlariga qaramay, olimlar bu borada turli farazlarni bildiradilar.

Atoqli xitoyshunos olim Eduard Shavan o'z tadqiqotida ko'pgina xalqlar tomonidan keng qo'llaniladigan o'n ikki hayvonli taqvim qadim turkiylarga oid yil hisobi bo'lgan, uni xitoylar turklardan o'zlashtirgan, degan ilmiy xulosaga kelgan. Eng qiziqarlisi, o'n ikki hayvonli turkiy taqvimning kelib chiqishi haqida gap ketganda, barcha olimlar Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'at-it turk» asaridagi talqinni chetlab o'tmaydilar. Sultonmurod Olimning «Bayroq, burj, burch» nomli kitobida

esa yil nomlarining kelib chiqishi quyidagi rivoyat bilan ifodalangan:

«Turk xoqonlaridan biri o'zidan bir necha yil oldin o'tgan urushni o'rganmoqchi bo'lgan, shunda u urush bo'lib o'tgan yilni aniqlashda yanglishgan. Bu masala yuzasidan xoqon qavmi bilan kengashdi va aytdi: «Biz bu tarixni aniqlashda qanchalik yanglishgan bo'lsak, bizdan keyin ham shunday yanglishadilar. Shunday bo'lgach, biz endi o'n ikki oy va osmondagi o'n ikki burjga asoslanib, o'n ikki yilga nom qo'yishimiz kerak, toki bizdan keyin yil hisobi shu yillarning aylanishiga qarab olinsin va bu narsa abadiy yodgorlik bo'lib qolsin», dedi.

Xoqon ovga chiqdi va odamlarga yovvoyi hayvonlarni Ila daryosi tomon quvishni buyurdi, bu juda katta suv. Odamlar ov qilib, hayvonlarni hayday boshladilar.

Shunda o'n ikki hayvon suvdan o'tdi. Eng oldin suvdan o'tgan hayvon sichqon bo'ldi. Shuning uchun yil boshi uning nomiga yil so'zini qo'shib, Sichqon yili deb atadilar. Undan keyin o'tganlari quyidagi tartibda bo'ldi: Ud (sigir), Bars (yo'lbars), Nek (timsoh,


hozir baliq deyiladi), Yilon (ilon), Yund (ot), Qo'y, Bijin (maymun), Taqag'u (tovuq), It, To'ng'iz.

Bu rivoyatni o'qib, o'n ikki hayvonli turk taqvimi nomi bilan tanishdingiz-a, bolajonlar?! Lekin yil nomlarini boshqa millat vakillarida o'zgacha nomlanishini eshitsangiz, ajablanmang. Muchal hisobi boshqa xalqlarning ijtimoiy-tarixiy va tabiiy-jug'rofiy sharoitidan kelib chiqib o'zgartirilgan.

O'zbeklar orasida tarqalgan afsona biroz hazilga yo'g'rilgan. Unga ko'ra, ho'kiz suvdan birinchi chiqdim, endi muchal men bilan boshlanadi, deb xursand bo'lib turganida, uning shoxidan sichqon tushib kelibdi. Shunday qilib, kuchiga ishongan ho'kiz emas, aql bilan ish tutgan sichqon muchalni boshlab beradigan bo'libdi.

Xalqimizda Ajdarho yili Baliq (nahang) yili deb ham ataladi. Nahang – «katta», «ulug'» degan ma'nolarni anglatadi. Shunday ekan, kelayotgan Yangi yil barchangizga qutlug' kelishini, o'zi bilan birga katta-katta muvaffaqiyatlar, omad, sihat-salomatlik olib kelishini tilab qolamiz.

Internet ma'lumotlari asosida
GULYUZ tayyorladi



SHOIR SHOGIRDLARIMGA O'RTUQLIK HAZILLARIM

deb yozadi Tursunboy ADASHBOYEV

**SODIQJON INOYATOVga**
(Xorazm)

Yaratganning karami keng, inoyatli,
Bolalarga asar yozish hidoyatli.
Shoir ukam o'zgalardek surlanmaydi,
Ming shukrkim, sobit-sodiq turlanmaydi.
Rostin aytсам, «Sharq»da chiqqan kitobingiz,
El oldida o'ziga xos hisobingiz!

**XUDOYBERDI
KOMILOVga**
(Samarqand)

Bitta kitob chiqardi-yu,
Barchamizdan o'zib ketdi.
Bolalarning arzi-holin,
Lag 'mondayin cho'zib ketdi.
Juda topqir tanqidchilar,
Ijodiga berar tan.
«Kimning qanday uxlashin» –
So'rang uning o'zidan!

**ABDURAHMON
AKBARGa**
(Toshkent)

Abdurahmon har kuni ishga,
Yangiyo'ldan qatnaydi.
Uning har bir satridan,
Mantiq-olov chaqnaydi.
Bugun ellik yoshda u.
«Cho'lpon»chilar bilarmikin?
Kitobini chiqarishib,
Sovg'a-povg'a qilarmikin?!

**ERPO'LAT BAXTga**
(Xorazm)

U Bo'g'otning o'g'loni,
Faqat shiddat-shaxd bo'lar.
Bir ko'rsangiz sholikor,
Kuzda hosil naqd bo'lar.
«Ko'ngilning xitoblari»
Xirmon to'la ahd bo'lar.
Diyonatli va komil,
Bu Erpo'lat Baxt bo'lar!

**QO'ZI ISMOILga**
(Xorazm)

«Qo'qchor bo'lar qo'zingiz,
Peshonasi do'ng bo'lar».
Niyati pok yigitning
Ishi doim o'ng bo'lar.
Navbat yetdi sifatga,
Biroz terlang ozingiz.
Bundan buyon, iltimos,
Qo'qchor bo'lib yozingiz!

**ZAFAR ISOMIDDINGa**
(Farg'ona)

Zafarjon she'r yozgan kezda,
Yog'och ot ham kishnaydi.
Hatto rassom Zufarov,
Yoqasini ushlaydi.
Qoyil qolib to'plamiga,
Bepul surat ishlaydi!

DILSHOD RAJABga
(Buxoro)

Qachon ko'rmang, qalam bilan
Dilshod quduq qaziyotgan.
Sabab, ishchan, chiqib ketar,
«Favqulodda vaziyatdan».
Hozirjavob, tadbirkorlik,
Yarashadi unga ajab,
Puxta shoir, zukko olim,
Ana shunday Dilshod Rajab!





QOR YOG'AR

*Qor yog'ar-u qor yog'ar,
Shamol osmonni sog'ar.
Daryo, ko'lga suv to'lar.
Tuproqqa foyda bo'lar.*

*Qor yog'ar-u qor yog'ar,
Dehqon tongda uyg'onar.
Tog'lar oppoq to'n kiyar,
Yerni uxlatib qo'yar.*

*Qor yog'ar-u qor yog'ar,
Cheksiz baraka yog'ar.
Bog'larni hayron qilar,
Quyosh jilmayib qo'yar.*

*Qor yog'ar-u qor yog'ar,
Elimizga rizq yog'ar.
Yangi yil kelar fayzli,
Oppoq qorlar tufayli.*

Mirza Anvar KARIMOV



QISH

*Bahor, yoz, kuz faslidek
Bizga qish ham qadrdon.
Oq to'n kiygan tabiat,
Yurtimizda qish mehmon.*

*Bog'lar kirgan uyquga,
Dam olmoqda yer, dala.
Dehqon reja tuzmoqda,
Dili orzuga to'la.*

*Yog'ar ko'kdan oppoq qor,
Qor emas bu – mo'l hosil.
Yur, qorbo'ron o'ynaylik,
Qani do'stim, tez shoshil.*

*Mayli, sovuq, qor bo'lsin
Qishning ham o'z gashti bor.
Sho'x bolalar qiyqirib,
Bir-biriga otar qor.
Fasllarning asli qish,
Qut-baraka fasli qish.*

Xolboy SHERDONOV,

Surxondaryo viloyati, Sherobod
tumanidagi 19-maktab o'quvchisi

A'ZAM AKANING BOLALARI

Osha kuni uyimizdagi katta archani bezatdik. Biram chiroyli chiqdiki, ko'rgan kishining havasi kelardi. Bayram dasturxonini tuzab bo'lingach, onam ukam Sohijbonni ergashtirib mahallamiz boshidagi A'zam akanikiga chiqib kelishdi. A'zam aka ham otamga o'xshagan haydovchi. U kishining yuklari sal ushlanib qolgani uchun kech qolayotgan ekan. Yangi yil bayramiga yetib kelolmasligi ham mumkin ekan. Onam ko'chadan biroz kayfiyatsiz qaytdilar:

– Do'stingiz tushmagur hali ham yetib kelmabdi. Bolalari deraza oldiga o'tirib olganicha ko'chadan ko'z uzishmayapti. Kelin chiroyli dasturxon tuzab qo'yibdi, qani endi qayrilib qarashsa. Otalari archa bezatamiz, Qorboboni ham olib kelaman, deb va'da bergan ekan...

A'zam akaning bolalari xayolimdan nari ketmay qoldi.

Mening birdaniga tund bo'lib qolganimga hamma hayron. Yangi yilning kirishiga chorak soat qolganda, darvoza taqillab qoldi. Derazadan qarasam, yelkasiga qopini ortmoqlagan Qorbobo bilan Qorqiz kirib kelardi

Universitetda tahsil olayotgan xolamning farzandlari Ravshan bilan Feruza opamni avvaliga tanimabman. Ey, qoyil! Sohijbonning quvonchini bir ko'rsangiz edi... Qorbobo xaltasidan sovg'alar olib, hammamizga ulashdi. Shuncha qistasak ham mehmonlar dasturxonga o'tirishmadi. Yangi yilni «o'rmon»dagi o'z uylarida kutib olishmoqchi ekan. Shunda otam birrovga bo'lsa-da, A'zam akanikiga ham kirib, bolalarini tabriklab qo'yishlarini so'radilar. Qorbobo bilan Qorqiz rozi bo'lishdi. Ammo sovg'alari tugagan ekan. Men o'z sovg'amni qaytarib xaltaga soldim. Dadam olib kelgan archachani qo'limga olib, A'zam akanikiga yo'l oldim. Kichkintoylar hali ham deraza oldidan ketishmagan ekan. Archachani stol chetiga o'rnatib chiroqlarini yoqqanimda, ularning shodon qiyqirig'i butun uyni tutdi... Hovlimiz tomon ketib borar ekanman, ich-ichimdan nimadir toshib kelayotganini his qildim. Nuqul iljayaman. Yangi yil bilan go'yo yaxshiliklar kirib kelganday edi.

Yusuf OG'AYEV





BOLAJON SHOIR



Yurtimiz Mustaqilligining 20 yilligi arafasida ko'plab yurtdoshlarimiz uzoq yillik samarali mehnatlari uchun hukumatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lishdi. Ular orasida bolalarning sevimli shoiri Anvar Obidjonning ham borligidan, «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlanganidan adabiyot ixlosmandlari birdek quvondik. Bu yuksak mukofotlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali yig'ilishda shaxsan Yurtboshimiz tomonidan o'z egalariga topshirildi.

Ardoqli ijodkorimiz O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonni yurtimizning oliy mukofoti bilan samimiy qutlab, yangi yil arafasida suhbatga chorladik. Bolaligi Oltiariqning Qorason qishlog'ida o'tgan shoirimizning ajib xotiralariga oshno tutindik. Suhbatimizga alohida mavzu tanlamadik, lekin u o'z-o'zidan xalqimizga xos bo'lgan mehr, oqibat, qarindoshlik rishtalari kabi sof, samimiy tuyg'ular haqida hordi...

Go'dakligidan tog'alari qo'lda ko'tarib katta qilgan Anvarjonni 1-sinfqa qadam qo'yganida ham, tarki odat amri mahol, deganlaridek, qishloqdagi 13-maktabga ko'tarib olib borib qo'yishar va darsdan chiqishini intiqlik bilan kutib turishar edi. Anvarjon esa o'rtoqlaridan uyalganidan, o'zim ketaman, deya «dod» solardi. Usmon tog'asi ham bo'sh kelmay: «Ataylab kelganmiz, jiyan, seni ko'tarib ketamiz», deya qo'llaridan qo'ymasdi.

– O'sha kezlari tog'alarimdan jahlim chiqardi. Endi o'ylasam, ular juda mehribon, jigarjon bo'lishgan ekan, – deya xotirlaydi Anvar aka. – Ana shu mehr, samimiyat turki bo'lib, murg'ak qalbimda adabiyotga, ijodga ishtiyoq uyg'ongan bo'lsa, ajabmas. 12-13 yoshlarimda «Shkafcham» nomli ilk she'rim «G'uncha» jurnalida chop etilganida, quvonganimni bir ko'rsangiz edi... Sho'xlik bobida birinchilar qatorida tursam-da, mehnatdan qochmaydigan, qiziquvchan bola bo'lganman. O'sha paytlarda qishloqlarga ko'chma kinochilar kelib, kinolar qo'yishardi. Men esa ularga yordamchi bo'lardim. Kechki maktabda o'qib, kunduzi traktor zavodida ishlardim. Qishloq kutubxonasida kutubxonachilik qilganim esa juda ko'p kitob o'qishimga imkon yaratgan. O'rta maktabni tamomlab, bir muddat qo'rg'oshin konida ishladim, tabelchilik qildim. Turli kasbdagi, turfa fe'l-atvorli odamlar bilan muloqotda bo'lganim, kasb-hunarlarining sir-asrorlarini o'rganганиm ijodimda qo'l keldi. O'zMU (ToshDU) jurnalistika fakultetida sirdan tahsil olib, Oltiariq tuman gazetasida tajriba orttirdim. 1981-yildan «Yosh gvardiya» («Yangi asr avlodi») nashriyotida ish boshladim...

Yodimda bor, biz ham Anvar akaning «Ona yer», «Bahromning hikoyalari» nomli kitoblarini o'qib ulg'ayganmiz, qahramonlarining quvnoq kechinmalari yodimizda qolgan. U kishini o'zimizga

ustoz bilib, ijod zavqini tuyganmiz. Bugungi kunda ham ijodning sirlari olamiga ilk qadamlarini qo'yayotgan yosh qalamkashlardan, qaysi ijodkorning asarlarini sevib o'qiysiz, deya so'rasak, Anvar Obidjonning nomini birinchilardan sanab o'tishadi.

ARINING DEGANI...

*Kaklik tutdik, ja-a semiz,
Yedik Burgut ikkimiz...*

deya yod olgan she'rlaridan o'qib ham berishadi.

Bu nimaning dalolati? Bu shoirimiz ijodining xalqchilligi, tilining sodda va ravonligi, bir so'z bilan aytganda, bolalar qalbiga yaqinligi dalolatidir.

Bugungi kunda ham samarali ijod qilayotgan adibimizning «O'q o'tmas bolakay yoxud Oltin yurak» nomli kitobi bosmadan chiqdi. Uning deyarli barcha qissa va hikoyalari jamlangan ushbu to'plam kitobsevar bolajonlar uchun ajoyib sovg'a bo'ldi.

Anvar aka yosh ijodkorlar haqida ham ijobiy fikrlar bildirdilar. «Bolalar adabiyoti kunlari» shiori ostida Yozuvchilar uyushmasi va «Ijod» jang'armasi tashabbusi bilan seminar o'tkazilganligi, unda Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa viloyatlardan qirqdan ziyod bolalar uchun ijod qiluvchi yosh qalamkashlar ishtirok etishgani, ularning turkum she'rlari saralanib, matbuotda yoritilganligi, uch nafar muallifning she'rlari alohida to'plam holda chop etilgani va bu an'ananing muntazam davom ettirilishi haqida mamnuniyat bilan gapirdilar.

«Tong yulduzi» o'quvchilariga bayram tilaklarini bildirib, jumladan, shunday dedilar:

–Yangi yilimizning «Mustahkam oila yili» deb nomlanishi bu farzandlarimiz, nabiralarimiz kamoloti uchun qilinayotgan barcha xayrli ishlar ko'lami yanada kengayadi, degani.

O'z o'rnida biz ham ko'p ming sonli o'quvchilarimiz nomidan sevimli adibimizni ulkan mukofot bilan, tabarruk yoshlari bilan, Yangi yil bilan muborakkob etamiz. Yangi yilda yangi-yangi she'rlar, gissalar kutib qolamiz.

Feruza JALILOVA



Bolajonlar! Sizlarga «Shum bola», «Jon-u dilim pishloq», «Qor malikasi», «Zumrad va Qimmat» singari spektakllarni tortiq qilgan Respublika «Yosh tomoshabinlar» teatri jamoasi Yangi yilga qanday sovg'a hozirlayotganini bilasizmi?

BOLALAR BILAN BIRGAMIZ!

Siz, aziz bolajonlarni qishki ta'tilda zerikib qolmasligingiz uchun «Qorboboning xaloskori» deb nomlangan spektaklni tayyorlab qo'yishibdi. Spektaklni rejissor Javlon aka Toshxo'jayev sahnalashtirdi.

– Bu yo'nalishga qiziqishim bolaligimdan boshlangan, desam, adashmayman, – dedi u. – 3-sinfda o'qib yurgan kezarimda, Nasiba Maqsudova, Dilfuza G'ulomova bilan birga radioda bolalar eshittirishlarini olib borardik. Keyinchalik bolalar uchun ishlangan badiiy filmlarga ovoz berishni boshladim. Institutni bitirib, 1978-yilda Andijon teatrida ish boshladim va 20 yil davomida bu dargohda mehnat qildim. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvoni, «Mehnat shuhrati» ordeni bilan taqdirlandim.

Hozirda «Yosh tomoshabinlar teatri»da bolalar uchun spektakllar sahnalashtiryapman.

Biz teatrdan 30 yildan buyon ishlab kelayotgan Hakima Otaxonovani suhbatga chorladik:

– **Bolajonlarning sevimli aktrisasi Hakima opaning bolaligi qanday kechgan?**

– Bolaligim Andijon viloyatining Bo'taqora qishlog'ida o'tgan. Oilada 6 nafar qizlar bo'lgamiz. Uydagi hamma yumushlar o'rtamizda taqsimlangan bo'lib, bolalar qiladigan ishlar mening zimmamda edi. O'sha kezlarda aktrisa bo'lishim xayolimga ham kelmagan. Maktabdagi drama to'garagiga a'zo bo'lgandim. «Sayyoraning nayranglari» deb nomlangan spektaklni sahnalashtirib, ko'rik-tanlovda tuman, viloyatda g'olib bo'ldik va Toshkentga shu spektaklni qo'yishga keldik. Ana shundan so'ng hakamlar hay'ati a'zosi bo'lgan Toshpo'lat aka Tursunovning tavsiyasi, ko'magi bilan shu yo'ldan ketdim va Toshkent teatr va rassomchilik institutiga imtiyozli qabul qilindim.

Ancha mashaqqatlar bilan maqsadimga erishdim. Hozirgi yoshlarda esa, hatto chet ellarda o'qish imkoniyatlari bor. Mana shu imkoniyatlardan unumli foydalanishsa, bas!

Suhbatdosh:

Ozoda

TURSUNBOYEVA



KO'NGLIMNING BUYUGISAN!

Hurmatli ota-onalar!
Yangi yil ostonasida sizlar
bilan yaxshi fikrlar va
chiroyli niyatlar ila
uchrashib turganimizdan
xursandmiz.

Jumanazar Beknazarov,
tibbiyot fanlari doktori,
Respublika bolalar bosh
uronefrologi, professor:

– Avvalo, yurtdoshlarimizni,
bolajonlarimizni yangi – 2012-yil
bilan chin qalbdan muborakbod
etaman. Quyida bayram bahona

ABDULLOH,
Farg'ona viloyati,
Uchko'prik
tumani, Salang
qishlog'i:

– Men futbol-
chi bo'lishni xoh-
layman.

Bir kuni uyda
dadamning
gaplarini eshitib qoldim: – Abdullohni yaxshi futbolchi
qilmoqchiman. Uni poytaxtdagi tajribali murabbiylar
qo'lga bersammikan... – To'g'risi, dadam menga
ishondilar. Bir necha kun chiroyli xayollar bilan
yashadim. Nihoyat, dadam bir tanishlari orqali meni
poytaxtga jo'natdilar. Hozircha hech qaysi bolalar
sport klubiga qabul qilinmadim. Lekin 2012-yilda,
albatta, dadam orzu qilgandek futbolchi bo'lishga
astoydil intilmoqchiman.

Yangi yil tilaklarimni ota-onalarga
maslahat tarzida bayon etishimga
ijozat bergaysizlar.

– **Farzandingizning nima-
ga, qaysi sohaga qiziqishi zo'r?
Siz buni anglaysizmi? Bolan-
gizning qobiliyatini sezgan
bo'lsangiz, unga qanday yor-
dam bermoqchisiz?**

Unda birgalashib fikrlashamiz:
dastlab ishni bolangizni
ilhomlantirish va rag'batlantirish-
dan boshlang. «Qizim (o'g'lim),
Sen juda qobiliyatliсан. Ayniqsa,
sportdagi qobiliyating bilan behad
faxrlanaman, ishonamanki, sen
mamlakatimiz sharaflini xalqaro
maydonlarda munosib himoya qila
olasan. Shuning uchun ham sen
ko'nglimning buyugisan!»

Mana shu yoqimli so'zlarni
farzandingizga har kuni, o'z
vaqtida takrorlab tursangiz, o'sha
farzandning o'ziga bo'lgan
ishonchi kundan-kun ortib
boradi. Tabiiyki, shu yo'lda
muvaffaqiyat kalitini izlashga
imkon topadi.

Agar unga har kuni: «Sen
landavursan, lapashangsan, sening
qo'lingdan hech ish kelmaydi»,
deya aytilaversa, bunday tarbiya
olgan bolada bo'shanglik, o'z
kuchiga ishonmaslik, yig'loqlik,
hadiksirash, ishonmaslik, o'z
mustaqil fikriga ega bo'lmaslik
xususiyatlari shakllanadi. Bora-
bora bu xususiyat unga yetakchilik
ham qila oladi.

Oilamiz mustahkam bo'lsin!

Farg'onalik Sohibjon HOTAMOV
shunday yozadi:

– 2011-yil oilamiz a'zolariga cheksiz
quvonch baxsh etdi, – deydi hamqishlog'im
Muhsinjon aka Ubaydullayev. Men Preziden-
timiz tomonidan «SPARK» yengil avtoulavi
hamda 20 yillik ko'krak nishoni bilan
taqdirlandim. Ayni paytda «Paxtakor» futbol
klubi a'zosiman.

Yangi yilning quvonchli kunlarida bolalarga
qiziq bir voqeani so'zlab bermoqchiman:

Meksikadagi jahon chempionatida Urugvayga
qarshi uchrashuv payti. Men tufayli darvozamiz
tomon hakam penalti belgiladi. Baxtni qarangki, raqib
tengdoshim penaltini golga aylantira olmadi. Shunda
darbozabon do'stim G'anisher mahoratini namoyish
etishga imkon yaratib berganim uchun menga rahmat
aytdi. Keksalar to'g'ri aytar ekanlar-da: «Bir
yomonlik, albatta, bir yaxshilikni yetaklab keladi», deb.

Yangi yilingiz qutlug' kelsin!





YANGI YIL HAZILLARI!



2011-YIL YUTUQLARI...

Oybek SHARIPOV – bokschi, O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi.

Aliyor NORALIYEV – bokschi, O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi a'zosi.

Ulyana TROFIKOVA – O'zbekiston badiiy gimnastikasi tarixida ilk bor Olimpiya o'yinlari yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Marina SISOVA – og'ir atletika bo'yicha o'smirlar terma jamoa a'zosi, oltin medal sohibasi.

Feruzabonu ABDURAHMONOVA – taekvando sport turi bo'yicha umiddi sportchilarimizdan biri.

Hulkar TOHIRJONOVA – shaxmat bo'yicha jahon chempionati sovrindori.

Sardor SODIQOV – o'zbek jang san'ati bo'yicha terma jamoa bosh murabbiyi.

VOQEALARDAN BIR SHINGIL...

Futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi tarixiy g'alabaga asos soldi.
Yurtimizda ilk bor muaytay bo'yicha jahon chempionati o'tkazildi.
Termiz shahrida kurash bo'yicha Hakim at -Termiziy xotirasiga bag'ishlangan X xalqaro turnir va VII jahon chempionati bo'lib o'tdi.



«QORQIZ» SALATI

Kerakli masalliq: 1 dona karam, 4 ta bodring, 4 ta kartoshka, 6 ta tuxum, 200 gramm pishloq, 1 bog' ukrop va bir banka mayonez.

Tayyorlanishi: karam, bodring, pishloq, qaynatilgan kartoshka somoncha shaklida to'g'raladi. Qaynatilgan tuxumning sarig'i alohida, oqi alohida qirg'ichdan o'tkaziladi. Kattaroq idishga solib, mayda to'g'ralgan ukrop, mayonez qo'shib aralashiriladi. Likoqchaga solib, usti tuxumning oqi bilan bezatiladi va ustidan tuxumning sarig'i sepiladi.



NARGIZA tayyorladi

«ARCHA» AYLANMA BOSHQOTIRMASI

Javoblarni shakldagi raqam atrofiga belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida yozing.

1. Eng ulug' baxt, yuksak iqbol. 2. Vaqt o'lchovi birligi. 3. Minora yoki devorga o'rnatilgan, musiqa jo'rligida zang uradigan soat. 4. Boshlanayotgan yilda yozgi olimpiada o'yinlari o'tkaziladigan poytaxt. 5. Yangi yil boshlanadigan oy nomi. 6. Yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, yo'lbo'shchi. 7. Yangi yil darakchisi. 8. Har to'rt yilda takrorlanadigan yil. 9. Kulgili voqea-hodisa haqidagi hikoya. 10. Bilim oluvchi. 11. Qish fasliga xos transport vositasi. 12. Bejamli bayram shirinligi. 13. Muchal yili hisobi bo'yicha boshlanayotgan yil nomi. 14. Tansiq milliy non turi. 15. Eng kichik miqdordagi butun son. 16. Qish yog'ini. 17. Merganlik maskani.

MUAMMONOMA

Kalit so'zlar: 1. Yangi kun boshlangan, musaffo payt - 15, 13, 6, 1.

2. Sayil va tantanalarda gumburlash bilan turfa rangda samoda aks etadigan moslama - 12, 9, 16, 5, 4.

3. Hafta kuni - 14, 9, 16, 5, 6, 2, 5.

4. Yilning eng sovuq va eng issiq qirq kunlik davri - 19, 7, 11, 11, 5.

5. Yil fasli - 2, 5, 17, 13, 8.


6. Vyetnam mamlakatida Yangi yilga bergan nom - 15, 10, 15.

7. Kech kuz, qish va erta bahorga xos ob-havo - 5, 3, 13, 18.

8. Musiqali san'at asari turi - 20, 21, 16, 7, 20.

Shakl atrofidagi raqamlarni kalit so'zlar javoblaridagi harflar bilan almashtirib, muammonmani hal eting. Bunda ulardan to'rt misra topishmoq ayon bo'ladi. Endi ana shu topishmoq javobini toping-chi!

Foziljon ORIPOV tuzdi



TOPISHMOQ TOPAMIZ

O'qib bering

Yangi yilning kirib kelishiga ham sanoqli daqiqalar qoldi. Dasturxon bezatilgan, shirinliklar ham tayyor. Ammo Baxtiyorning dadasi va Dilnoza opasidan darak yo'q.

– O'yijon, dadam, Dilnoza opam qanilar? – so'radi Baxtiyor betoqatlanib.

– Hademay kelib qolishadi, – dedi onasi bamaylixotir.

– dedim onasi bamaylixotir.

Shu payt eshik qo'n-g'irog'i jiringlab qoldi.

Eshik ochgan onasi: «Voy, kelinglar», deya mehmonlarni uyga taklif qildi.

Eshikdan yuzlari oppoq, yanoqlari qip-qizil, chiroyli Qorqiz bilan sovg'a to'la qopi bilan Qorbobo kirib kelishdi.

– Xush kelibsizlar, – deya xursand bo'ldi o'yijonisi.

BAXTIYORNING DADASI QAYERDA?



Aziz bolalar, toping-chi, Qorbobo bilan Qorqiz kim?

MANZURA

SUZAYOTGAN

Bu qiziq!



Buni qarangi, Rio-de-Janeyroda suzuvchi archa mavjud ekan. Uning balandligi 85 metr, og'irligi 530 tonna keladi. Metall konstruksiyadan yasalgan bu archa Lagoa qo'liga o'rnatilgan bo'lib, unga o'rnatilgan elektron qo'ng'iroq «Rojdestvo» kuyini chaladi. Uch milliondan ortiq chiroqchalari bor girlyandni kompyuter boshqaradi. Dam olish kunlari archadan mushaklar otiladi. Rio-de-Janeyrodagi Yangi yil archasi bir necha yillar oldin Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan. Bu g'aroyib, suzuvchi archa 12 yildan buyon o'rnatiladi.

QIMMATBAHO



2010-yilda Abu-Dabida oltin va kumush pufaklar bilan bezatilgan eng qimmatbaho archa yasatilgan. Shuningdek, zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlardan tashkil topgan bezaklar jami 11,2 mln. dollarni tashkil etgan.

DILOROM tayyorladi

OLOV – TILSIZ YOV



Bolajonlar, xabaringiz bor, Vazirlar Mahkamasining Qaroriga binoan Respublikamizda 25-noyabrdan 25-dekabrga qadar «Yong'in xavfsizligi oyligi» o'tkazilmoqda. Oylilik doirasidagi tadbirlardan biri Sirg'ali tumanidagi 322-umumta'lim maktabining 6-«F» sinfida ham bo'lib o'tdi.

Unda Sirg'ali tuman IIB YOXB 5-XYOXO 9-XYOXQ boshlig'i, mayor A.F.Xan, Sirg'ali tuman IIB YOXB 5-XYOXO katta muhandisi serjant D.X.Yunusov, 5-XYOXO komandirining KBIB o'rinbosari, kichik serjant S.H.A.Mamatqulov ishtirok etishdi.

Tadbirida so'z olganlar A.F.Xan, serjant D.X.Yunusov yong'inlar, ularning kelib chiqish sabablari, ayanchli oqibatlari haqida gapirishdi.

Tadbir so'ngida bolajonlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

O'z muxbirimiz

TONG yulduzi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi Kengashi, «SOG'LAM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jam'iasmi.

Bosh muharrir:
To'lqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Rassom:
FeruZ
MATYOQUBOV
Navbatchi:
Ma'mura
MADRAHIMOVA

Tel: 244-27-25
Tel./faks: (99871) 244-38-10

Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz

«O'zbekiston»

NMIUda chop eildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq
ISSN 2010-6092
Adadi-30714
Buyurtma N: J 3508